QASHQADARYO VILOYATI
KITOB TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180700 Kitob tumani Katta yo‘l ko‘chasi 32-uy tel: 75-54-25-307

2023 - yil 13 - iyun 152-4-62-Q/23 Kitob tuman hokimligi

Davlat o‘rmon fondi va geologiya Milliy tabiat bog‘i yerlarida yong‘in xavfining oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 22-noyabrdagi “Respublika o‘rmonlarini himoya qilish bo‘yicha ayrim meyoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 506-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda 2023-yilda davlat o‘rmon xo'jaligi, geologiya Milliy tabiat bog‘i hududida yong‘in kelib chiqishi, tabiatga, o‘simlik dunyosiga zarar yetishining oldini olish maqsadida Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi direktorining 2023-yil 14-apreldagi xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi direktorining 2023-yil 14-apreldagi xati inobatga olinsin.

2. 2023-yilning yoz, kuz fasllarida Kitob va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaliklari, geologiya Milliy tabiat bog‘i, qo‘shni fermer xo‘jaliklari hududida tamaki mahsulotlari chekish, ov qilish, gulxan yoqish qat’iyan man qilinsin.

3. Kitob va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaliklari, geologiya Milliy tabiat bog‘i hududida yong‘inga qarshi kurash tadbirlari 1-ilovaga, favqulodda holatlarda yong‘inni o‘chirish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Kitob va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaliklari (SH.Adilov, J.Xoliqov), geologiya Milliy tabiat bog‘i (N.Abdiyev), Obikanda, Kuhsor, Qaynar, Bashir, Makrid mahallalari (R.Normurodov,S.Norimov,N.Shoyimov,T.Murodov,U.Jurayev) yong‘in

xavfining oldini olish bo‘yicha barcha tadbirlarni o‘tkazishga shaxsan mas’ul etib belgilansin.

Ularga;

tuman IIB YOXB (A.Boltayev), tuman Tibbiyot birlashmasi (O.To‘raboyev), “O‘ztelekom” AK Kitob tumani filiali (SH.Tursunov) bilan birgalikda davlat o‘rmon fondi va geologiya Milliy tabiat bog‘i yerlarida yong‘in sodir bo‘lganda zudlik bilan odamlarni yong‘inni o‘chirishga jalb qilish, asbob-uskunalar, oziq-ovqatlar bilan ta’minlash, tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish;

tuman Tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi (S.Boynazarov) bilan birgalikda mazkur hududlar yaqinida yashayotgan aholi o‘rtasida o'rmon xo‘jaliklari va Milliy tabiat bog‘i hududida yong‘inning oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish;

“O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan hujjatlarni rasmiylashtirib, tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Kitob tumani hokimining 2022-yil 17-maydagi 178-4-62-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan, deb hisoblansin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari vazifasini vaqtincha bajaruvchi T.Nasimov, tuman hokimining o‘rinbosari B.Turayevlar zimmalariga yuklatilsin.

9. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kitob tuman hokimi **Pardayev U.B**

Kitob tuman hokimining
2023-yil 13-iyundagi
152-4-62-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududidagi davlat o‘rmon fondi va geologiya Milliy tabiat bog‘i yerlarida yong‘inga qarshi kurash
T A D B I R L A R I

1. O‘rmonlarda va o‘rmon bilan qoplangan Davlat o‘rmon fondi yerlari va geologiya Milliy tabiat bog‘i yerlarida yong‘in xavfsizligini ta’minlash uchun shaxsan javobgarlikni his etish, yong‘in bo‘lish ehtimoli kuchli davrda belgilangan yong‘in xavfsizligi ishlarini bajarish, Davlat o‘rmon fondi yerlarida chiqqan yong‘inni tezkorlik bilan o‘chirish va bu to‘g‘risida tegishli tashkilotlarga tezlik bilan habar qilish.

Bajaradi: O‘rmon xo‘jaligi, geologiya Milliy tabiat bog‘i, Fuqarolar yig‘inlari

Muddati: Mavsum davomida

2. O‘t-o‘lan bilan qoplangan yerlarda, qamishzorlar, o‘rmonzorlar yaqinida shamolli ob-havoda gulxan yoqishni ta’qiqlash, yonib turgan narsalarni tashlash uchun maxsus joylarni tashkil qilish.

Bajaradi: O‘rmon xo‘jaligi, geologiya Milliy tabiat bog‘i, Tuman IIB YOXB

Muddati: Mavsum davomida

3. Davlat o‘rmon fondi yerlari va geologiya Milliy tabiat bog‘ida yong‘in chiqqan holda, yong‘in chiqqan joyga ko‘ngilli yong‘in uchirish bo‘linmalarini, belgilangan yong‘in o‘chirish ishchi kuchlarini o‘z vaqtida yetkazish, texnika va yong‘inga qarshi transport bilan ta’minlashni to‘g‘ri va aniq tashkil qilish.

Bajaradi: O‘rmon xo‘jaligi, geologiya Milliy tabiat bog‘i, Fermer xo‘jaliklari, Fuqarolar yig‘inlari, tuman IIB YOXB

Muddati: Mavsum davomida

4. Chorva mollari boqiladigan, ov qilinadigan, beda o‘riladigan o‘rmonlarda, bolalar oromgohlarida, dam olish zonalarida va geologik qidiruv ekspeditsiyalarida komplektlangan yong‘in o‘chirish qurollarini bo‘lishini nazorat qilish, Davlat o‘rmon fondi yerlariga yaqin yerlarda va unga olib boruvchi yo‘llar yoqasiga olovdan ehtiyotlik bilan foydalanishga chaqiruvchi yong‘in chiqish xavfidan ogohlantiruvchi belgilarni qo‘yish.

Bajaradi: O‘rmon xo‘jaligi, geologiya Milliy tabiat bog‘i, Fuqarolar yig‘inlari, tuman IIB YOXB

Muddati: Mavsum davomida

5. Ommaviy axborot vositalaridan keng foydalangan holda Davlat o‘rmon qo‘riqchilariga shahar va qishloq aholisi o‘rtasida yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish mavzularida targ‘ibot ishlarini olib borish.

Bajaradi: O‘rmon xo‘jaligi, geologiya Milliy tabiat bog‘i, Kitob ovozi ro‘znomasi muxaririyati.

Muddati: Mavsum davomida

6. Davlat o‘rmon fondi yerlari geologiya Milliy tabiat bog‘ida ish olib boruvchi yoki o‘rmonlarda ba’zi obyektlarga ega bo‘lgan hamda o‘rmon fondi yerlarini ma’lum muddatga ijaraga olgan xo‘jaliklar, tashkilotlar, fermer xo‘jaliklari va alohida shaxslarni mavsumga tayyorgarliklarini tekshirish, aniqlangan kamchiliklarni birgalikda hal etish hamda qat’iy choralar ko‘rish.

Bajaradi: O‘rmon xo‘jaligi, geologiya Milliy tabiat bog‘i, tuman IIB YOXB

Muddati: Mavsum davomida

7. Yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzuvchilarni tezkorlik bilan aniqlash, ularni ustidan zudlik bilan tegishli hujjatlarni tuzib, keltirilgan zararni undirib olish choralarini ko‘rish, yong‘inga qarshi kurash maqsadida tezkorlik bilan harakat qiluvchi guruh tuzish uni harakat yo‘nalishini belgilash va shu mavzuda seminar tashkil qilish.

Bajaradi: O‘rmon xo‘jaligi, geologiya Milliy tabiat bog‘i, tuman IIB YOXB

Muddati: Mavsum davomida

Kitob tuman hokimining
2023-yil 13-iyundagi
152-4-62-Q/23-son qaroriga
2-ilova

2023-yilda Kitob va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaliklari geoligiya Milliy tabiat bog‘i yerlarida favqulodda holatlarda yong‘inni o‘chirish

R YE J A S I

T/r	Kitob tumani	Joylashgan aholi		Yong‘inga qarshi o‘chirish asboblari			O‘rmon bo‘limlarining nomi	Texnika-lar soni	Shundan suv tashish mashinasi
		Jami	Shundan yong‘in o‘chirishga qatnashadi	Bolta	Arra	Belkurak			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	Obikanda MFY	8543	600	150	150	300	Siyob	1	1
2	Kuxsor MFY	4170	400	100	110	190	Denovbola Qavzaxona Matmon Jovuz	7	1
3	Qaynar MFY	5168	450	150	120	180	Mingchinor	2	1
4	Bashir MFY	5443	475	160	125	190	Hazrati Bashir	2	1
5	Makrid MFY	12774	1200	300	400	500	Makrid	1	1

Kerakli narsalar yuboriladigan joylar	Tibbiy yordam ko‘rsatilishini tashkil etishda javobgar shaxs	Yong‘in bo‘ladigan joylarda aloqani tiklash bo‘yicha javobgar shaxs	O‘rmon bo‘limi boshliqlarining I.F.O	Yong‘inni o‘chirish bo‘yicha javobgar shaxs	Texnika va yong‘in o‘chirish asbob-uskunalarini olish joyi
11	12	13	14	15	16
Fuqarolar yig‘inlari, Fermer xo‘jaliklari	Tuman Tibbiyot birlashmasi (O.To‘raboyev)	“O‘ztelekom” AK Kitob tumani filial (SH.Tursunov)	M.Muxtorov, A.Xoliqov, S.Saburov, M.Raxmatov, U.Safarov, Sh.Davronov, I.Safarov, A.Turdiyev, X.Rajabov	O‘rmon inspektori F.Haydarov O‘rmon inspektori M.Turdiyev	O‘rmon xo‘jaliklari, Mahalla fuqarolar yig‘inlari, hamda fermer xo‘jaliklari omborlari

Kitob tuman hokimining
2023-yil 13-iyundagi
152-4-62-Q/23-son qaroriga
3-ilova

XUQUQIY XULOSA

Kitob tuman hokimining "Davlat o'rmon fondi va gelogiya Milliy tabiat bog'i yerlarida yong'in xavfining oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yilda davlat o'rmon fondi va geologiya Milliy tabiat bog'i yerlarida yong'in kelib chiqishi hamda tabiatga va o'simlik dunyosiga zarar yetkazilishining oldini olish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 22-noyabrdagi "Respublika o'rmonlarini himoya qilish bo'yicha ayrim meyoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 506-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Kitob davlat o'rmon xo'jaligining xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "O'rmon to'g'risida"gi, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonunlari hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasiga asosan qonun talablari doirasida ishlab chiqilgan.

Kitob tuman hokimining "Davlat o'rmon fondi va gelogiya Milliy tabiat bog'i yerlarida yong'in xavfining oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchilikka va qonunchilik texnikasi qoidalariga to'liq javob beradi.

Kitob tuman hokimining "Davlat o'rmon fondi va gelogiya Milliy tabiat bog'i yerlarida yong'in xavfining oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori loyixasi 2023-yil 19-may kuni interaktiv portalga muxokoma uchun kiritilgan (ID № 80397), muxokoma muddati 2023-yil 03-iyun kuni yakunlanganligi sababli tuman Adliya bo'limiga xuquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun yuborilmoqda.

Kitob tuman hokimligi bosh yuriskonsulti,
2- darajali adliya maslahatchisi Sh.Eshniyazov

Kitob tuman hokimining
2023-yil 13-iyundagi
152-4-62-Q/23-son qaroriga
4-ilova

NORMATIV-HUQUQIY HUJJAT LOYIHASINING LINGVISTIK EKSPERTIZA XULOSASI

2 -son

1.Normativ-huquqiy hujjat loyihasining turi: qaror

2.Normativ-huquqiy hujjat loyihasining nomi: Davlat o‘rmon fondi va geologiya Milliy tabiat bog‘i yerlarida yong‘in xavfining oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida

3.Lingvistik ekspertizani o‘tkazuvchi: : Kitob tumani hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi L. O‘roqova

4. Lingvistik ekspertiza o‘tkazilgan sana: 2023-yil 2-iyun

5.Normativ-huquqiy hujjat loyihasi matnida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, tegishli tuzatishlar kiritish, matnni qisqartirish, qayta ishlash bo‘yicha aniq tavsiyalar ko‘rsatiladi.

Hujjat loyihasi ko‘rib chiqildi va matnda uslubiy, imloviy, tinish belgilariga oid xatolar borligi aniqlandi. Bundan tashqari, joy nomlari va rahbarlarning ism-shariflarini yozishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan. Qarorning aniq va qisqa bo‘lishi uchun 4-, 5-, 6-bandlarini umumlashtirish tavsiya etildi. Qaror loyihasining kirish qismida asos bo‘luvchi qonunlar tarqoq holda yozilgan. Ular tartibga olindi.

Qaror loyihasidagi imlo va uslubiy xatolar tuzatilib, ayrim takror ism-shariflar to‘g‘rilandi. Mazmunga zarar yetmagan holda ixchamlashtirildi. Boshqa kamchiliklar ham tuzatildi.

BERILGAN TAVSIYALAR

T/r	Loyiha matnida	Tavsiyada
1	Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi (Sh.Adilov) va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaligi (J.Xoliqov),	Kitob va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaliklari (Sh.Adilov, J.Xoliqov)
2	Qo‘riqxona	Geologiya Milliy tabiat bog‘i
3	4. Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi (Sh.Adilov) va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaligi (J.Xoliqov), qo‘riqxona (N.Abdiyev), Obikanda (R.Normurodov), Kuhsor (S.Norimov), Qaynar (N.Shoyimov), Bashir (T.Murodov), Makrid (U.Jurayev) mahallalari raislari yong‘in xavfining oldini olish bo‘yicha barcha tadbirlarni o‘tkazishga shaxsan mas’ul etib belgilansin.	4. Kitob va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaliklari (SH.Adilov, J.Xoliqov), geologiya Milliy tabiat bog‘i (N.Abdiyev), Obikanda, Ko‘hsor, Qaynar, Bashir, Makrid mahallalari (R.Normurodov, S.Norimov, N.Shoyimov, T.Murodov, U.Jurayev) yong‘in xavfining oldini olish bo‘yicha barcha tadbirlarni o‘tkazishga shaxsan mas’ul etib belgilansin. Ularga: tuman IIB YOXB (A.Boltayev), tuman Tibbiyot birlashmasi (O.To‘raboyev), “O‘ztelekom” AK Kitob tumani filiali (Sh.Tursunov) bilan birgalikda davlat o‘rmon fondi va geologiya Milliy tabiat bog‘i yerlarida yong‘in sodir bo‘lganda zudlik bilan odamlarni yong‘inni o‘chirishga jalb qilish, asbob-uskunalar, oziq-ovqatlar bilan ta’minlash, tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish; tuman Tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi (S.Boynazarov) bilan birgalikda mazkur hududlar yaqinida yashayotgan aholi o‘rtasida o‘rmon xo‘jaliklari va Milliy tabiat bog‘i hududida yong‘inning oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish; “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza
4	5. Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi (Sh.Adilov) va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaligi (J.Xoliqov), qo‘riqxona (U.Rahmonov), tuman IIB YOXB (A.Boltayev), tuman Tibbiyot birlashmasi (O.To‘raboyev), “O‘ztelekom” AK Kitob tumani filiali (Sh.Tursunov), Obikanda (R.Normurodov), Kuhsor (S.Norimov), Qaynar (N.Shoyimov), Bashir (B.Safarov), Makrid (U.Jurayev) birgalikda davlat o‘rmon fondi va qo‘riqxona yerlarida yong‘in sodir bo‘lganda zudlik bilan yong‘inni o‘chirish uchun odamlarni jalb qilish, ularni asbob-uskunalar, oziq-ovqatlar bilan ta’minlash, tez tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rish vazifalarini amalga oshirsinlar.	

Kitob tuman hokimining
2023-yil 13-iyundagi
152-4-62-Q/23-son qaroriga
5-ilova

5	6. Kitob davlat o‘rmon xo‘jaligi (SH.Adilov) va Jovuz davlat o‘rmon xo‘jaligi (J.Xoliqov), va qo‘riqxona (N.Abdiyev), tuman Tabiatni muhofaza qilish inspeksiyasi (S.Boynazarov), Obikanda (R.Normurodov), Kuhsor (S.Norimov), Qaynar (N.Shoyimov), Bashir (B.Safarov), Makrid (U.Jurayev) mahallalari raislari o‘rmon xo‘jaligi va qo‘riqxona yerlariga yaqin joyda yashayotgan aholi o‘rmon xo‘jaligi yer fondi va Milliy tabiat bog‘i yerlarida yong‘inning oldini olish bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish hamda “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan hujjatlarni rasmiylashtirib, tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.	etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi Qonunlarni buzgan shaxslarga nisbatan hujjat rasmiylashtirib, tegishli organlarga taqdim etish vazifalari topshirilsin.
6.	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Xalilov zimmasiga yuklatilsin.	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari vazifasini vaqtincha bajaruvchi T.Nasimov, tuman hokimi o‘rinbosari B.Turayevlar zimmalariga yuklatilsin

Maslahatchi: L. O‘roqova

*Ushbu tavsiyalar jadval shaklida bayon qilinib, unda loyiha matnining dastlabki tahriri hamda ekspertiza natijasida tavsiya etilayotgan tahrir aks ettirilishi lozim.